

## Pedagogical necessity of developing methodological training of future primary school teachers

**Abdiyeva Koysintosh Azadovna**

Tashkent University of Applied Sciences, Senior lecturer of the Department of  
Primary Education Theory and Medicine.

Tel: 90-000-40-84 E-mail: [tesanov@mail.ru](mailto:tesanov@mail.ru)

4th year student

**Nomurodova Khurshidakhon**

### ANNOTATION

The article examines the fundamental changes in all areas of our lives today, including new methodologies in preschool and primary education, the role of models, the role of 4K skills in the training of future primary school teachers, and the problems of modern education. Future primary school teachers should develop creativity in their native language and reading literacy, which is manifested in thinking, communication, emotions, and a specific type of activity.

**Key words:** Keywords: 4K skills, creativity, education system, quality of education, pedagogical conditions, outcome-goal, function clarification, system, essence, textbook, educational materials, education, great curiosity, flexible thinking.

**Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini  
rivojlantirishning pedagogik zarurati**

*Abdiyeva Qo'ysintosh Azadovna*

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti, Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va medikasi  
kafedrasi katta o'qituvchisi.*

*Tel: 90-000-40-84 E-mail: [tesanov@mail.ru](mailto:tesanov@mail.ru)*

*4-kurs talabasi Nomurodova Xurshidaxon*

### ANNOTATSIYA

Hozirgi kundagi hayotimizning barcha sohalarini tubdan o'zgarishlar, jumladan, maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'limda yangi metodika, modellarning o'rni, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda 4K ko'nikmalarini o'rni, zamonaviy ta'limning muammolari ko'rib chiqilgan. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ona tili va o'qish savodxonligi fanidan kreativlik oshirish, tafakkurda, muloqotda, his-tuyg'ularda, muayyan faoliyat turida namoyon bo'ladi.

### АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются фундаментальные изменения во всех сферах нашей жизни сегодня, включая новые методики дошкольного и начального образования, роль моделей, роль навыков 4К в подготовке будущих учителей начальной школы, а также проблемы современного образования. Будущим учителям начальной школы необходимо развивать креативность в родном языке и читательскую грамотность, проявляющуюся в мышлении, общении, эмоциях и определённом виде деятельности.

**Kalit so'zlar:** 4K ko'nikmalari, kreativlik, ta'lim tizimi, ta'lim sifati, pedagogik shart sharoit, natijaviy-maqсад, funksiyaning yoritilishi, tizim, mohiyat, darslik, o'quv materiallar, ta'lim, katta qiziquvchanlik, moslashuvchan fikrlash.

**Ключевые слова:** Навыки 4К, креативность, система образования, качество образования, педагогические условия, конечный результат-цель, разъяснение функций, система, сущность, учебник, учебные материалы, образование, большое любопытство, гибкое мышление.

Zamonaviy ta'limda tafakkuri boy, dunyoqarashi keng, mustaqil fikrga ega bo'lgan mutaxasislarni tayyorlashni taqazo etmoqda. Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston bugun tarix chorrahasida, ta'lim rivojida yangi marralarni zabt etishga intilmoqda. Mamlakatimizda ta'limning barqaror rivojlanishi va farovonligi uchun sifatli ta'lim muhimligini anglagan holda, sohada islohotlar amalga oshirish uchun katta sa'y-

harakatlarni amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar xalqaro tashkilotlarning mustahkam hamkorlik va ko‘magini talab qiladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarda 4K ko‘nikmalarini shakllantirishma metodik tayyorgarlikni rivojlantirishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tili-o‘qish savodxonligi va uni o‘qitish metodikasi, tayanch kompetensiyalari va aqliy rivojlanishi, moddiy borliq go‘zalliklarini his ettira olishga o‘rgatish, fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, boshqalar fikrini tushunish, shaxsiy fikrlarini tushunarli tarzda bayon eta olish xislatlarini shakllantirishga erishishi kerak.

Ko‘p mamlakatlarda o‘qituvchilar uchun kompetentlik yondashuvi asosidagi kasbiy standartlar qabul qilingan. Singapur, AQSH, Finlyandiya, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Germaniya, Yangi Zelandiya shular jumlasidan bo‘lib, mazkur davlatlarda kasbiy standartlarni ishlab chiqish va qabul qilish natijasida o‘qitish sifati yanada oshgan. Bu esa talaba va o‘quvchilarning bilimi, o‘qitish natijalarini yaxshilashga imkon beradi.

“Masalan, Finlandiyada ta’lim fakultetlarining eng ustuvor vazifasi “o‘zini boshqaruvchi o‘qituvchilar”ni tayyorlashdir. Finlandiyalik o‘qituvchilarni shu qadar muvaffaqiyatli qiladigan narsa, albatta, ularning aqli ekanligi emas. Chunki ta’lim fakultetlari o‘z talabalarini aqllariga qarab tanlamaydilar. O‘qituvchilikka o‘qitiladigan fakultetga ko‘plab bosqichlarni bosib o‘tgandan so‘ng qabul qilinadi, ular orasida yaxshi munosabatlar o‘rnatish, kelishuvchanlik, bolalalar darajasiga tusha olish, intiluvchan shaxsga ega bo‘lish kabi mezonlar ko‘proq ahamiyatga ega. Finlandiyada o‘qituvchilarning amaliyot bosqichi biz bilganingizdan ancha farq qiladi. Amaliyot shunchaki qilinishi kerak bo‘lgan narsa emas, shuningdek, sinfda o‘tirib bir martalik dars tomosha qilish yoki ma’ruza qilish ham emas. Bo‘lajak o‘qituvchilar doimo talabalar bilan uchrashib, ular bilan qanday ta’lim berish kerakligi haqida suhbatlashadilar. O‘quvchilar doimiy ravishda o‘zgarib turadi va bo‘lajak o‘qituvchilar

butun kunlarini maktablarda o‘tkazadilar.”- deb yozadi Grigoriy Petrov “Oq nilufarlar yurtida” nomli asarida.

Mamlakatimiz pedagoglaridan Aydarava U [12], Qosimova Z [78], Asqarova M [23], R.G‘.Safarova [80], Aydarova U [12], M.Azimov [13], N.Atayeva [14], Bikbayeva N.U [16], Ismoilov A [17], A.A Ismailovlarning [110] ilmiy tadqiqotlarida ta‘lim sifatini oshirishda hamkorlikda ishlash texnologiyalaridan foydalanish, kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirishda kollaborativ texnologiyalarning roli, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tili va o‘qish darslarida adabiy-nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun kollaborativ yondashuvning natijadorligi o‘z isbotini topgan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda prognozlash kompetensiyasini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonning tarkibiy qismlarini batafsil o‘rganish, uning samaradorligini ta‘minlash imkonini beradi. Bo‘lajak o‘qituvchilar prognozlash kompetensiyasiga ega bo‘lishlari uchun quyidagi ko‘nikmalarni o‘zlashtirishlari talab etiladi:

- o‘zlarining kasbiy faoliyatlari va o‘quv jarayonini rejalashtirish;
- ixtirochilik qobiliyatiga ega bo‘lish;
- ta‘lim jarayonida faoliyatli yondashgan holda o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yish hamda algoritmlash layoqatini namoyon etish kabilar.

“Talabalarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning mavjud imkoniyatlarini tadqiq etish maqsadida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoniga qo‘yilayotgan zamonaviy yondashuvlarni inobatga olib boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishining DTS va Malaka talablari o‘rganildi.

Ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiy talablar quyidagilar:

- dunyoqarash va ijtimoiy jarayonlar bilan bog‘liq tizimli bilimlarga ega bo‘lishi;

gumanitar va tabiiy ilmiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- Vatan tarixini bilishi, madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lish;

- tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lishi;

- insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof-muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda ma‘naviy, madaniy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilish;

- axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini bilishi, o‘z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;


- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

-sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tassavvur hamda e‘tiqodga, o‘zini jismoniy chiniqtirish o‘quv va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim” [125].

Mamlakatimizda inson, uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, manfaatlarini ro‘yobga chiqarish sharoitlarini yaratish, ta’lim sifati va samaradorligini yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohotlar natijasida interfaol o‘qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishni keng tatbiq etish imkoniyatlari yaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish” kabi ustuvor vazifalar belgilanib berilgan. Shunga muvofiq interfaol o‘qitish metodlari asosida talabalarning kreativlik

qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun dastlab “kreativlik” tushunchasining ma’noni tushunib olish talab etiladi. “Kreativlik” tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin: Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyatdir.

Bizning yondashuvimizga ko‘ra, quyidagi sxema orqali bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi qiyofasi belgilab berilgan:



### 1.1-rasm.

Bunday yondashuv asosida oliy pedagogik ta‘lim jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu jihatdan xalqaro pedagogik tajribalarda qabul qilingan quyidagi konseptual yo‘nalishlarga e‘tibor berish lozim:

a) bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga kasbiy, psixologik va pedagogik bilim berish;

- b) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik ko'nikma bilan qurollantirish;
- c) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining zamonaviy texnologik imkoniyatlaridan foydalanishga o'zgatish;
- d) bola bilan ishlash psixologiyasini shakllantirish.

Ushbu yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash kutilgan samarani berishi shubhasizdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'limning bugungi yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlari hozir faqat inson aql zakovati, zamonaviy va tezkor imkoniyatlardan xabardor bo'lishdan bexabar qolmay, balki uning ongini qayta qurish bilan bog'liq jarayondir. Insoniyat rivojining yangi bosqichi insonning shakllanish jarayoni, hayotiy maqsadlar, shaxsiy fazilatlar va qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini o'zgartiradi. O'sib kelayotgan yosh avlod uchun ta'lim tizimi sifat jihatdan yangicha talablarni qo'yadi.

“XXI asr innovatsiyalar asri sifatida tavsiflanadi. Mamlakatimiz taraqqiyoti esa jamiyat hayotining barcha sohalari qatorida ta'lim-tarbiya tizimini ham zamonaviy talablar darajasiga ko'tarish borasida amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi bilan belgilanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, avvalo, ushbu sohaga zamonaviy, ilg'or va innovatsion pedagogik texnologiyalarni izchil joriy etishga bevosita bog'liqdir. Ta'lim samaradorligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri talabning o'quv jarayonidagi faollik darajasi ekanini inobatga olgan holda, yangi pedagogik metod va shakllar ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish va faol ishtirok etish uchun keng imkoniyat yaratadi.” [118].

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida Ona tili- o'qish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi, ona tili va o'qish fani metodikasi fanlarining mohiyati, uni o'qiyotgan talabalar maktabdagi ish faoliyatlarida 4K ko'nikmalari asosida ta'lim berish usullarini to'la amalga oshirish qobiliyatlarini namoyon eta olishlari bilan belgilanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2019-yil 8-may

2. Kreativ fikrlashni baholash. A.Ismailov va boshqalar. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. 2021-yil.

3. G.H.Xodiyeva, “Gender yondashuv asosida boshlang‘ich sinf tarbiya fani darslarida 4K kompetensiyalarini rivojlantirish”, “Gender modellar vositasida o‘quvchi ham talaba-yoshlarda madaniy xulq-atvorni shakllantirish mexanizmlari: muammolar va yechimlar” xalqaro ilmiy-amaliy anjumani.

4. Bellanca, J., & Brandt, R. (2010). «21st Century Skills: Rethinking How Students Learn». Solution Tree Press.

5. X.Ibraimov, M.Quronov “Umumiy pedagogika” Sahnof-2023.

6. BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARINING STEAM TA’LIMI ORQALI O ‘ZO ‘ZINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

AQY Azadovna, XY Mamatqulovna - Eurasian Journal of Academic Research, 2024

7. [Развитие компетентности саморазвития учащихся начальных классов](#)

К Абдиева - Общество и инновации, 2023 [Похожие статьи](#)

8. Baxromovna, S. U. (2025). BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARIDA RESURSLARNI TO ‘G ‘RI BOSHQARISH KO ‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH. FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities., 13(9), 128-135.

9. Bakhromovna, S. U. (2025). MODERN MECHANISMS FOR DEVELOPING PRIMARY SCHOOL STUDENTS’RESOURCE MANAGEMENT SKILLS WITHIN THE EDUCATIONAL CLUSTER. SHOKH LIBRARY, 503-505.